O’zbekiston tarixi davlat muzeyi Toshkent muzeyi filiali

Qadimdan ma’naviy, dunyoviy, ahloqiy qadriyatlar o’zbek xalqining turmush tarzida, an’anaviy madaniyatida muhim o’rin tutgan. O’zbek xalqi butun tarixi davomida boshqa xalqlar va dinlarga nisbatan bag’rikenglik va hurmat ko’rsatgan. Qadimgi sivilizatsiyalarning viojida respublikamiz hududida joylashgan qadimgi shaharlarning o’rni katta bo’lib, ularning tarixi bugungi kunda butun jahonga ma’lumdir. Shunday tarixiy shaharlardan biri Toshkent bo’lib, asrlar davomida hunarmandchilik va sharq madaniyatining yirik markazlaridan biri hisoblangan. Qadimgi va o’rta asr manbalarida Toshkent hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish markazi sifatida shuhrat qozongani qayd etiladi.



foto: Sherzod Ikramutdinov

Buyuk ipak yo’lining gavjum chorrahasida joylashgan Toshkent asrlar davomida ilm-fan, madaniyat va ma’rifat markazlaridan bo’lib kelgan. Vatanimizning oltin ostonasi bo’lmish poytaxtimiz bugungi kunda yanada rivojlanib, go’zal va obod megapolislardan biriga aylanib bormoqda. Lekin shunday katta shahar shu vaqtga qadar o’zining muzeyiga ega emas edi. Adiblar hiyobonida joylashgan Toshkent shahri muzeyi 2200 yillik tarixga ega bo’lgan hududning qadim o’tmishi, urf-odat va an’analari, ilm-fani, madaniyati va san’atini o’zida aks ettiradi. Hozirgacha bu yerda mingga yaqin eksponatlar to’plangan. Muzey fondini boyitish izchil davom ettirilmoqda.














foto: Sherzod Ikramutdinov

Muzey ekspozitsiyasining birinchi qavatda “Toshkent – ilm-fan markazi”, “Toshkent – bag’rikenglik shahri”, “Amaliy san’at. Kundalik hayot va madaniyat” deb nomlangan ekspozitsiyalar tashkil etilgan.

Ekspozitsiyaning ikkinchi qavatda oltita (“Toshkent vohasi tosh davrida, so’ngi bronza va ilk temir davri”, “Antik davrda Choch”, “Ilk o’rta asrlarda Toshkent”, “Rivojlangan o’rta asrlarda Toshkent”, XIV-XVI asrlarda Toshkent) bo’limdan iobrat bo’lib, u qadimiy ish qurollari, xo’jalik buyumlari, qadamjolarning maketlari namoyishga qo’yilgan. Eksponatlarga o’zbek, rus va ingliz tillaridagi matnlar bilan sharh beriladi. Monitorlar, infokiosklar va boshqa texnologiyalar yordamida qo’shimcha ma’lumotlar taqdim etiladi.



foto: Sherzod Ikramutdinov